

PAPER

O‘ZBEK TILINING INTERNETDAGI NUTQ MADANIYATI

Axmadaliyeva Umidaxon Yaqubjon qizi¹, *

¹Qo‘qon davlat universiteti gumanitar fanlar va tillar fakulteti 1-kurs talabasi

* axmadaliyeva354@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada o‘zbek tilining internetdagi nutq madaniyati tahlil qilindi. Unda internetdagi nutqning asosiy xususiyatlari, muammolari va uning yechimlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada internetdagi nutqning tilga ta’siri, savodsizlikning oshishi, adabiy tilning obro‘sizlanishi va yoshlar orasida nutq madaniyatining pasayishi kabi masalalar muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada internetda to‘g‘ri yozish va so‘zlash madaniyatini targ‘ib qilish va o‘zbek tilida sifatli kontent yaratish kabi yechimlar taklif etiladi

Key words:

o‘zbek tili, internet, nutq madaniyati, til buzilishi, savodsizlik, adabiy til, yoshlar, ijtimoiy tarmoqlar, memlar, jargonlar, emoji’lar.

Kirish

Bugungi raqamli dunyoda insonlarning juda ko‘p vaqti ijtimoiy tarmoq va turli saytlar uchun sarf etilmoqda. Ularning katta qismini biz yoshlar tashkil etamiz. Ijtimoiy tarmoq kuzatuvchilari, ya’ni jadal sur’atlarda rivojlanib borayotgan virtual olam ishtirokchisiga aylanib ulgurgan yoshlar o‘zbek tilining internetdagi nutq madaniyatiga qay darajada amal qilyapti ekan?

Internetdagi nutq madaniyati mavzusi haqida so‘z borganda yoshlar orasidagi taqlidchanlik va

savodsizlik ko‘zga tashlanadi. Sababi shundaki, ko‘p sonli o‘smirlar turli “madaniyat” larga ergashishi oqibatida adabiy til me’yorlariga e’tibor berishmaydi. Bundan tashqari, internet nutqida qisqartmalarning ko‘pligi, alifbodagi harflar o‘rniga turli belgilardan foydalanish, sodda birikmalar va emoji’lar ham nutq madaniyatining yuksalishiga to’siq bo‘layotgan sabablardan biridir. Qolaversa, internet-memlar, virusli kontent, nutqda qo‘pollik va senzurasiz so‘zlar nutq saviyasining pasayishiga, shu bilan birga yangi so‘zlar, ibora va madaniy kodlarning yaratilishiga

Compiled on: December 16, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

olib keladi.

Munozara va tahlillar

Tilning buzilishida grammatik xatolar bilan birga soʻzlarni notoʻgʻri ishlatishning ham hissasi katta. Bu borada tilshunos olimlardan D.Joʻraqulova, G.Karimova, M.Tojiyev va A.Madrahimovlar ijtimoiy tarmoqlardagi nutq madaniyati, jumladan, imloviy va grammatik meʼyorlarga eʼtibor qaratgan. S.Gʻulomova ijtimoiy tarmoqlardagi qisqartmalar va inglizcha aralash soʻzlarning koʻpayishi milliy tilning sofligiga tahdid solayotganini ilmiy maqolalarida koʻrsatib oʻtgan. Yana shuni taʼkidlash joizki, morfologik-sintaktik meʼyorlarning oʻz oʻrnida ishlatilmasligi nutqdagi gʻalizlikni keltirib chiqaradi, biroq bugungi kunda bunga eʼtiborsizliklar kuchaygan. Morfologik-sintaktik meʼyor soʻz oʻzagiga qoʻshiladigan qoʻshimchalarni qabul qilingan qoidaga asosan qoʻllashni talab etadi. Masalan: "kelopti" emas "kelyapti", "boʻvotti" emas "boʻlyapti".

Internetdagi nutq madaniyatsizlik qurshovida qolishining yana bir sababi anonimlik va javobgarlikning yoʻqligi bilan bogʻliq. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning fikrlarini keltirishimiz oʻrinli. "Bizni hamisha oʻylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir soʻz bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bogʻliq. Bugun zamon shiddat bilan oʻzgaryapti. Bu oʻzgarishlarni hammadan ham koʻproq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar oʻz davrining talablari bilan uygʻun boʻlsin. Lekin ayni paytda oʻzligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulugʻ zotlarning avlodimiz, degan daʼvat ularning qalbida doimo aks-sado berib, oʻzligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan". Shu bilan birga Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33- moddasida soʻz erkinligi kafotlangan, lekin bu erkinlik boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmaslik sharti bilan cheklangan.

Ijtimoiy tarmoqlardagi yozma nutq xatolarini tahlil qilish orqali olimlar til madaniyatini oshirish, yozma savodxonlikni rivojlantirish va raqamli til siyosatini ishlab chiqish boʻyicha ilmiy asoslar yaratgan.

Yana, shu masalaga yechim sifatida quyidagi tavsiyalarni berishimiz mumkin:

1. Ijtimoiy tarmoqda, video, reels va xabarlarda nutq madaniyatini yuqori oʻringa qoʻyish.
2. Internet nutqi madaniyatiga va shu doirada til jozibasi, uning boyligini koʻrsatishga oid sifatli kontentlar yaratish.
3. Turli soʻz oʻyinlari, viktorina, tanlovlar, soʻrovnomalar oʻtkazish va yutuqli oʻyinlar joriy etish.
4. Kitobxonlikni joriy etish, yaʼni Oʻzbekistonda yoshlar oʻrtasida kitobxonlikni keng targʻib qilishga qaratilgan turli loyihalar amalga oshirish. Bunig misoli tarzida 2020-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yosh kitobxon" va "Kitobxon oila" respublika tanlovlarini keltirish mumkin.

Xulosa

Bugun har bir inson bevosita ijtimoiy tarmoqlar kuzatuvchisiga, raqamli dunyo ishtirokchisiga aylangan. Shunday ekan yuqoridagi masalaga nafaqat tilshunoslar va masʼullar, balki butun jamiyat birdek yondashishi lozim. Zero, har bir madaniyatli kishi adabiy til meʼyorini buzmasligi shart. Chunki tilning tozaligi, maʼno jihatdan aniqligi va oʻtkirliги uchun kurashda adabiy til muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy tarmoqdagi nutq madaniyati til meʼyorlariga boʻlgan eʼtiborni susayishiga olib kelmoqda. Bu holatni bartaraf etish maqsadida taʼlim tizimi, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamkorligida yoshlar va keng omma uchun targʻibot ishlari zarur. Ijtimoiy tarmoqdagi nutq madaniyati tilshunoslikninig dolzarb masalalaridandir. Ushbu kamchiliklarni tuzatish bilan biz tilimizning sofligini saqlab qolishimiz, kelajakka uni boy va jozibali tarzda yetkazishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: "Oʻqituvchi", 2006.
2. Quدراتov T. Nutq madaniyati asoslari. T., 1993.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

4. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. 43-to'plam 3-qism.
5. www.ziyonet.uz
6. www.ziyouz.com
7. www.inlibrary.uz
8. www.pedagoglar.org